

KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 1- iyul holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 82 109 tani tashkil qilib, shundan 64 610 tasi yoki 78,7 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar asosan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasiga 31 633 ta (38,5 foizi), savdo 19 218 ta (23,4 foizi), sanoat 9 088 ta (11,1 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4 688 ta (5,7 foizi), qurilish 3 584 ta (4,4 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan, % da	birlik	yakunga nisbatan, % da
Jami	82 109	100,0	64 610	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31 633	38,5	17 660	27,3
Sanoat	9 088	11,1	8 458	13,1
Qurilish	3 584	4,4	3 429	5,3
Savdo	19 218	23,4	17 554	27,2
Tashish va saqlash	1 261	1,5	1 207	1,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 688	5,7	4 303	6,7
Axborot va aloqa	852	1,0	791	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1 044	1,3	1 000	1,5
Boshqa turdagi xizmatlar	10 741	13,1	10 208	15,8

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 5,1 foizi davlat va 94,9 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar



(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)

01.07.2021- y.



01.07.2022- y.

Ro'yxatga olingan korxonalarining 94,9 foizini nodavlat mulki shaklidagi korxonalar tashkil qilib, jami nodavlat shaklidagi korxonalarining 10,9 foizi xususiy korxonalar, 0,8 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 13,2 foizi oilaviy korxonalar va 70,0 foizi boshqa korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Ro'yxatga olingan nodavlat mulkidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar (umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)

01.07.2021- y.

01.07.2022- y.



2022- yil yanvar-iyun oylarida jami 6 684 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (24,8 foizi), Paldardarg'om (9,2 foizi), Samarqand (7,7 foizi), Urgut (8,1 foizi), Ishtixon (6,1 foizi), Oqdaryo (5,1 foizi), Kattaqo'rg'on (5,1 foizi), Bulung'ur (4,7 foizi) va Jomboy (4,5 foizi) tumanlariga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 47,0 foizi savdo, 15,2 foizi sanoat, 10,7 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 9,7 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,1 foizi qurilish, 1,8 foizi axborot va aloqa, 1,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 foizi tashish va saqlash hamda 10,0 foizi boshqa sohalarga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2022- yil 1- iyul holatiga viloyatda jami 678 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 440 tasi qo'shma korxonalar, 238 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda

Jami xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar
soni



Qo'shma korxonalar
Xorijiy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida (305 ta yoki 45,0 foizi), Urgut (54 ta 8,0 foizi), Jomboy (51 ta 7,5 foizi), Samarqand (41 ta 6,0 foizi), Oqdaryo (33 ta 4,9 foizi), Pastdarg'om (33 ta 4,9 foizi), Bulung'ur (24 ta 3,5 foizi), Qo'shrabot (22 ta 3,2 foiz), Kattaqo'rg'on shahrida (22 ta 3,2 foizi), Payariq (18 ta 2,7 foiz), Ishtixon (17 ta 2,5 foiz), Kattaqo'rg'on (16 ta 2,4 foizi), Toyloq (14 ta 2,1 foizi) va Nurobod (13 ta 1,9 foizi) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Narpay (5 ta 0,7 foizi) va Paxtachi tumanlari (10 ta 1,5 foizi) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


	Soni	ulushi, %
Viloyat bo'yicha	678	100,0
Samarqand sh.	305	45,0
Kattaqo'rg'on sh.	22	3,2
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	33	4,9
Bulung'ur	24	3,5
Jomboy	51	7,5
Ishtixon	17	2,5
Kattaqo'rg'on	16	2,4
Qo'shrabot	22	3,2
Narpay	5	0,7
Payariq	18	2,7
Pastdarg'om	33	4,9
Paxtachi	10	1,5
Samarqand	41	6,0
Nurobod	13	1,9
Urgut	54	8,0
Toyloq	14	2,1

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Sohalar kesimida ushbu ma'lumotlar 2022- yilning 1- iyul holatiga qaralganda eng ko'p sanoatda 315 ta (46,5 foiz), savdoda 127 ta (18,7 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 74 ta (10,9 foiz), boshqa turlarida esa 58 ta (8,6 foiz), qurilishda 38 ta (5,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 28 ta (4,1 foiz) ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 16 ta (2,4 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 12 ta (1,8 foiz) hamda axborot va aloqada 10 ta (1,5 foiz)ni tashkil qilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2022- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 43 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahrida 19 ta, Samarqand tumanida 7 ta, Payariq tumanida 3 ta, Jomboy 3 ta, Urgut 3 ta, Ishtixon tumanida 2 ta, Oqdaryo, Bulung'ur, Qo'shrabot, Narpay, Paxtachi va Pastdarg'om tumanlarida 1 tadan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 13 ta, sanoatda 13 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4 ta, axborot va aloqada 4 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 ta, qurilishda 3 ta va boshqa sohalarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2022- yil 1- iyul holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 44 957 tani tashkil qilib o'tgan yilga nisbatan 119,6 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, ya'ni 13 034 tasi (29,0 foizi) Samarqand shahriga, 3 914 tasi (8,7 foizi) Urgut, 3 824 tasi (8,5 %) Pastdarg'om hamda 3 307 tasi (7,4 %) Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2022- yil yanvar-iyun oylari davomida 6 499 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, Samarqand shahrida (1 622 ta), Pastdarg'om (608 ta), Urgut (517 ta), Samarqand (507 ta), Ishtixon (402 ta) va Oqdaryo tumanlarida (336 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari esa Qo'shrabot (148 ta) tumaniga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- iyul holatiga 10 873 tani tashkil etib, ulardan 10 011 tasi yoki 94,6 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi, ya'ni 2 343 tasi Samarqand shahriga, 1 110 tasi Pasdarg'om, 1 053 tasi Samarqand hamda 886 tasi Payariq tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarining 40,4 foizi yoki 4 047 tasi savdoda, 23,8 foizi yoki 2 381 tasi sanoatda, 20,8 foizi yoki 2 084 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,0 foizi yoki 697 tasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 0,8 foizi yoki 78 tasi axborot va aloqada, 0,6 foizi yoki 58 tasi qurilishda, 0,5 foizi yoki 50 tasi tashish va saqlashda, 0,5 foizi yoki 50 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda 5,7 foizi yoki 566 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Korxonalar va tashkilotlarning (dehqon va fermer xo'jaliklarsiz) hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda

	<i>Ro'yxatga olingan</i>			
	<i>01.07.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.07.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	45 701	39 528	54 949	48 583
Samarqand sh.	13 346	11 803	15 556	13 947
Kattaqo'rg'on sh.	1 534	1 355	1 782	1 596
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 859	1 606	2 410	2 151
Bulung'ur	1 794	1 510	2 251	1 960
Jomboy	1 761	1 512	2 207	1 949
Ishtixon	2 429	2 101	2 958	2 627
Kattaqo'rg'on	2 245	1 895	2 810	2 454
Qo'shrabot	1 101	860	1 275	1 036
Narpay	1 499	1 199	1 735	1 432
Payariq	2 404	2 044	2 898	2 524
Pastdarg'om	3 847	3 338	4 712	4 195
Paxtachi	1 212	954	1 470	1 204
Samarqand	3 417	3 103	4 098	3 773
Nurobod	1 393	1 167	1 735	1 501
Urgut	3 905	3 394	4 674	4 133
Toyloq	1 955	1 687	2 378	2 101

davomi

	<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>			
	<i>01.07.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.07.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	43 465	37 581	51 035	44 957
Samarqand sh.	12 705	11 268	14 533	13 034
Kattaqo'rg'on sh.	1 426	1 251	1 631	1 448
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 741	1 499	2 175	1 926
Bulung'ur	1 739	1 467	2 131	1 851
Jomboy	1 709	1 474	2 103	1 858
Ishtixon	2 304	1 997	2 715	2 401
Kattaqo'rg'on	2 172	1 831	2 617	2 272
Qo'shrabot	1 025	790	1 186	953
Narpay	1 469	1 180	1 691	1 398
Payariq	2 247	1 902	2 666	2 307
Pastdarg'om	3 671	3 177	4 323	3 824
Paxtachi	1 177	935	1 378	1 127
Samarqand	3 167	2 869	3 617	3 307
Nurobod	1 324	1 106	1 613	1 386
Urgut	3 788	3 296	4 437	3 914
Toyloq	1 801	1 539	2 219	1 951

davomi

	<i>Faoliyat ko'rsatmayotgan</i>			
	<i>01.07.2021 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.07.2022 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	2 236	1 954	3 914	3 637
Samarqand sh.	641	538	1 023	918
Kattaqo'rg'on sh.	108	104	151	148
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	118	107	235	225
Bulung'ur	55	43	120	109
Jomboy	52	39	104	92
Ishtixon	125	105	243	226
Kattaqo'rg'on	73	64	193	183
Qo'shrabot	76	70	89	83
Narpay	30	19	44	35
Payariq	157	142	232	217
Pastdarg'om	176	162	389	374
Paxtachi	35	19	92	77
Samarqand	250	235	481	466
Nurobod	69	61	122	115
Urgut	117	98	237	219
Toyloq	154	148	159	150

davomi

	<i>Yangi tashkil etilgan</i>			
	<i>01.07.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.07.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	5 260	5 147	6 638	6 499
Samarqand sh.	1 337	1 294	1 658	1 622
Kattaqo'rg'on sh.	154	148	190	185
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	285	281	340	336
Bulung'ur	206	204	303	295
Jomboy	222	216	298	292
Ishtixon	299	295	408	402
Kattaqo'rg'on	268	261	339	335
Qo'shrabot	128	127	151	148
Narpay	179	173	198	192
Payariq	242	238	323	313
Pastdarg'om	464	461	615	608
Paxtachi	181	177	196	191
Samarqand	412	409	518	507
Nurobod	211	208	251	245
Urgut	435	419	531	517
Toyloq	237	236	319	311

davomi

	<i>Faoliyati tugatilgan</i>			
	<i>01.07.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>	<i>01.07.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxonalar va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	705	686	1 064	1 030
Samarqand sh.	152	147	238	230
Kattaqo'rg'on sh.	31	29	35	34
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	24	24	34	32
Bulung'ur	9	9	26	24
Jomboy	27	24	59	57
Ishtixon	65	64	97	94
Kattaqo'rg'on	38	38	41	40
Qo'shrabot	21	21	20	19
Narpay	22	21	34	33
Payariq	61	60	42	41
Pastdarg'om	61	61	83	82
Paxtachi	24	23	42	41
Samarqand	29	29	166	162
Nurobod	12	12	53	52
Urgut	102	97	47	44
Toyloq	27	27	47	45